

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi



guruhiy xay‘at raisi  
L. X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025 y.

**« TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
direktori



L. X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025 y.

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

## **Parhez hamshirasi**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(216-kredit )**

**Toshkent-2025 yil**

**TUZUVCHILAR:**

I.O.Otajonov

TDTU “Atrof muhit gigiyenasi” kafedrası  
katta o‘qituvchisi, t.f.n.

SH.A.Razakova

Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika  
xodimlar malakasini oshirish va  
ixtisoslashtirish markazi o‘qituvchisi.

**TAQRIZCHILAR:**

G.A.Toshmatova

TDTU “Atrof muhit gigiyenasi” kafedrası  
katta o‘qituvchisi, Ph.D

M.U.Muxsimova

Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika  
xodimlar malakasini oshirish va  
ixtisoslashtirish markazi o‘qituvchisi

O‘quv dasturi Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko‘rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025.y.

bayonnoma № 6



Pedagogik kengash rasi

L.X.Musadjanova

O‘quv dasturi direktorlar kengashida ko‘rib chiqildi, muhokama  
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025.y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida horijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Parhez hamshirasi" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 216 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish"moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

### 1.1. Maqsad:

Davolash-profilaktika muassasalarida bemorlarning parhez ovqatlanishida qo'llaniladigan standartlar, davolash jarayonida parhezning ahamiyati va hamshiraning vazifalarini o'rgatish. Davolash profilaktika muassasalari bo'limlarida ishlaydigan parhez hamshirasining faoliyat olib borishdagi bilimlarini zamonaviy,

innovatsion, dalillarga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda o'qitish. O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xosligi, normativ huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli tibbiy yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

## **1.2. Vazifalar:**

- Ixtisoslashtirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi me'yoriy hujjatlarni hamshiralarning ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- aholi orasida ovqatlanish taomnomasini o'rgangan holda, ularga iste'mol qilayotgan oziq-ovqatni ta'sirini o'rganish;
- oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi vitamin va mineral moddalar tarkibini, makro va mikronutriyentlarni bilgan holda, ularni biokimyoviy laboratoriyada tahlil qilish uchun jo'natish;
- aholini salomatlik holati, yoshi, tana vazni, bajaradigan ish faoliyatiga mos holda har bir bemorga mos keladigan oziq-ovqatlar to'plamini tanlab berish;
- to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to'g'risida maslahat berish asosiy tamoyillarini o'rgatish;
- onalar, homilador ayollar va bolalarni ovqatlanish madaniyatini shakllantirish bo'yicha o'qitish, salomatligini rivojlantirish va xavfsiz muhit yaratish uchun oilada mavjud imkoniyatlardan ijobiy foydalanish kerakligi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borishga yordam berish;
- nutritsiolog, diyetolog hamshiralarga tashrifi davomida onalar va bolalar salomatligida ovqatlanishni ahamiyati bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarni taqdim etishi, bolalar va o'smirlar ovqatlanishlarini to'g'ri tashkil qilish borasida ma'lumotlar berish;
- aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- ovqatlanish fiziologiyasi va gigiyenasi, oziq-ovqatlarga qo'yiladigan energetik talablarni;

- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda bemor ahvolini baholash, asoratlarni oldini olish chora-tadbirlarini qo'llay olish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi Respublika davolash profilaktika muassasalari turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan, keyinchalik "Parhez hamshira"si lavozimida faoliyat yuritishni istagan, tibbiyot kollejini "Davolash ishi", "Akusherlik ishi" va "Hamshiralik ishi" yo'nalishlari bo'yicha mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini amaliyotda qo'llay olishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlarini, rad etish mezonlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshira olishi;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda qo'llay olishi;
- organizmning fiziologik o'zgarishlarini bilishi;
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilash tamoyillarini bilishi.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

"Parhez hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirishda hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni (O'zbekiston Respublikasining qonunlari, texnik reglamentlar, xalqaro va milliy standartlar, buyruqlar, tavsiyalar, terminologiya, xalqaro birliklar tizimlari, amaldagi xalqaro tasniflar), shuningdek, sifat va ish faoliyatini baholash uchun hujjatlardan foydalanish imkoniyati va yordamini ko'rsatish, ularning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy tibbiy-tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy texnologiyalarning aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va samaradorligini baholash. O'rta tibbiyot xodimlarining zararsizlantirish muolajalariga o'rgatish talab qilinadi. O'quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib,

o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 216 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

**1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda.
- on/offline, masofaviy / a'naviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:**

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Parhez hamshirasi" yo'nalishi bo'yicha 216 kredit ixtisoslashtirishdan o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1.Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya-targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etish;
- salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilash tamoyillarini bilishi;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lomlashtirish, profilaktikasi asoslarini o'rganish;
- ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy emotsional salomatlik qoidalarini bilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi vitamin va mineral moddalar tarkibini, makro va mikronutriyentlarni bilgan holda, ularni biokimyoviy laboratoriyada tahlil qilishni;
- aholini salomatlik holati, yoshi, tana vazni, bajaradigan ish faoliyatiga mos holda har bir bemorga mos keladigan oziq-ovqatlar to'plamini tanlab berish;
- parhez stollarini turli kasalliklarda tavsiya qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga qo'yiladigan talablarga rioya qilish;

- oziq-ovqat mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy, energetik qiymati va ularning gigiyenik tavsifi haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlar uchun parhez taomnoma tuzish;
- taomnoma tuzish, oziq-ovqat mahsulotlarini va tayyor ovqatlarini tarqatish bo'yicha yuritiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish;
- yurak-qon tomir kasalliklar xavfini kuchaytiruvchi nutriyentlarni bilish;
- saraton kasalligini rivojlanishiga sabab bo'luvchi kanserogen oziq-ovqatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- aholini yoshi, vazni bajaradigan ishi faoliyatiga mos taomnoma tanlash va taklif etish;
- parhez stollar va ularni tavsiya etishda nutritsiolog, diyetolog hamshirasi faoliyati samaradorligi bo'yicha yangi reyting tizimi;
- aholi orasida sog'lom ovqatlanish bo'yicha nutritsiolog, diyetolog hamshirasi faoliyati natijalarini baholash;
- nutritsiolog, diyetolog hamshirasi faoliyati samaradorligi bo'yicha yangi reyting tizimi bo'yicha ishlash.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1 "Parhez hamshirasi" 216 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish modullari</b>	<b>54</b>	<b>32</b>	<b>22</b>	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul: Xorijiy til	6	2	4	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi meyoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infeksion nazorat	6	4	2	
1.6	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat.	6	4	2	
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	6	2	4	

1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	12	6	6	
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fani modullari</b>	<b>156</b>	<b>56</b>	<b>100</b>	
2.1	Modul: Umumiy diyetologiya asoslari. Ratsional va parhez ovqatlanish tamoyillari.	12	6	6	
2.2	Modul: Parhez hamshirasi yuritadigan me'yoriy hujjatlar va yuritilish tartibi.	6	4	2	
2.3	Modul: Parhez stollar va ularning ahamiyati. Taom tarkibi va undagi ozuqaviy moddalar, ularning biologik qiymati.	18	6	12	
2.4	Modul: DPM larda bemorlar ovqatlanishini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyenik talablar. Taomnoma tuzish tartibi va me'yorlari. Parhez taomlarni tayyorlash texnologiyasi.	36	12	24	
2.5	Modul: Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga qo'yiladigan talablar. Oziq-ovqat mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy va ularning gigiyenik tavsifi.	18	6	12	
2.6	Modul: Shifobaxsh ichimliklar va ularni turli kasalliklarda tavsiya etish.	12	4	8	
2.7	Modul: Turli kasalliklarni davolashda parhez ovqatlanishni tashkil etish. Turli aholi guruhlarining ovqatlanishi.	36	12	24	
2.8	Modul: Bolalar va o'smirlar diyetologiyasi xususiyatlari.	12	4	8	
2.9	Modul: Onkologik kasalliklar xavfini kuchaytiruvchi nutriyentlar. Kanserojenlar. Saraton kasalligini rivojlanishiga qarshilikni oshiruvchi oziq-ovqatlar.	6	2	4	
	<b>Attestatsiya</b>	<b>6</b>			<b>6</b>
	<b>Jami:</b>	<b>216</b>	<b>88</b>	<b>122</b>	<b>6</b>

## **“Parhez hamshirasi” ixtisoslashtirish kursi o‘quv modullarining mazmuni**

### **1.1.Modul.**

**O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas‘uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;

- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'рни;

hozirgi zamonda informatikaning o'рни va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik

osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat** Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

**1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.** Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda

vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

**2.1. Modul. Umumiy diyetologiya asoslari. Ratsional va parhez ovqatlanish tamoyillari.** Ratsional va parhez ovqatlanish tamoyillari. Organizmning normal o'sishi va rivojlanishida ratsional ovqatlanishning ahamiyati. Parhez ovqatlarning davolovchi ta'siri. Ovqat tarkibidagi ovqatlarning o'zaro mutanosibligi. Surunkali kasalliklardan himoyalash uchun oziq-ovqatning ilmiy ahamiyati. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish salomatlik va fiziologik holatiga qarab, aholini guruhlarga ajratish. Aholi orasida sog'lom ovqatlanish ko'nikmalarini shakllanishida nutritsiolog, diyetolog hamshirasi faoliyati natijalarini baholash. Parhez stollar va ularni tavsiya etishda nutritsiolog, diyetolog hamshirasi faoliyati samaradorligi bo'yicha yangi reyting tizimini joriy qilish mexanizmlari. Ko'p iste'mol qilinadigan milliy taomlarning xususiiyati. Milliy taomlarni tayyorlash texnologiyalari. Ovqatlanish rejimi va asosiy qoidalari. Ovqatlanishga qo'yiladigan talablar, turli kasalliklarda parhez taomlarini tayyorlash. Organizm tomonidan qabul qilinayotgan va sarflanayotgan energiyani hisoblash.

**2.2 Modul. Parhez hamshirasi yuritadigan me'yoriy hujjatlar va yuritilish tartibi.** Parhez taomlari uchun hujjatlarning yuritilish tartibi. Taomnoma tuzish, oziq-ovqat mahsulotlarini va tayyor ovqatlarini tarqatish bo'yicha yuritiladigan hujjatlar. Parhez stollarining kasalliklarga qarab belgilanishi. Ovqat tayyorlash xonasida yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqat sifatini nazorat qilish. Ovqat tayyorlash xonasida ish jarayonini tashkil qilish bo'yicha yuritiladigan hujjatlar. Ovqat tayyorlash xonasida sanitar gigiyenik va epidemiyaga qarshi tartibni saqlash bo'yicha yuritiladigan hujjatlar. Ovqat tayyorlash xodimlarining sog'ligini nazorat qilish. Xodimlarda yiringli yaralarni aniqlash bo'yicha ko'rik jurnali. Bo'limlarda bemorlarni ovqatlantirish bo'yicha porsionniklar tuzish. Davolash muassasasida bemorlarni ovqatlantirish bo'yicha taomlar kartotekasi (go'shtli, baliqli, sutli, krupali, unli, sabzavotli ovqatlar, zakuskalar, salatlar, ichimliklar va h.k.). Asosiy parhezlar bo'yicha 7 kunlik taxminiy taomnoma. Bemorlar harakati bo'yicha ma'lumot. Ombordan oziq-ovqat mahsulotlarini olish bo'yicha talabnoma. Bo'limlarda bemorlarni ovqatlantirish, bufet mahsulotlarini

bo'limlarga berish bo'yicha tarqatish varaqasi. Oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqat sifatini nazorat qilish.

**2.3 Modul. Parhez stollar va ularning ahamiyati. Taom tarkibi va undagi ozuqaviy moddalar, ularning biologik qiymati.** Parhez taomlar tavsifi, turlari va ularning ahamiyati. Parhez taomlarga ko'rsatmalar ularning xususiyatlari, biologik tarkibi. Turli kasalliklarda parhez taomlarni tavsiya etish. Surunkali kasalliklarni parhez taomlar bilan davolash. Parhez taomlarga to'g'ri ishlov berish. Oziq –ovqat tarkibidagi oqsil, yog', uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar, mikroelementlar va makroelementlar ahamiyati, kaloriyasining mutanosibli. Parhez rejimida kasallikning xarakteri, bosqichi, bemorning holati, uning individual xususiyatlariga bog'liqligi. Parhez ovqat tarkibi, sifati, kaloriyasi va fizik xususiyati. Hayvon va o'simlik mahsulotlaridan olinadigan oqsillar. Yog' almashinuvi buzilishi. Uglevodlar biologik ahamiyati, sutkalik ehtiyoj. Suvning ahamiyati. Mineral moddalar, turlari, ahamiyati. Vitaminlar, turlari ularga bo'lgan sutkalik talablar. Parhez stollarini tavsiya qilish tartibi. Shifoxonada taomnoma tuzish. Nazorat sifatini nazorati. Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlash, saqlash. Fiziologik meyor bo'yicha oqsil, yog', uglevodlar va ovqat kaloriyasini taqsimlash.

**2.4 Modul. DPM larda bemorlar ovqatlanishini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyenik talablar. Taomnoma tuzish tartibi va me'yorlari. Parhez taomlarni tayyorlash texnologiyasi.** Profilaktika muassasalarida, statsionarda davolanayotgan bemorlar uchun parhez taomnoma tuzish va uning meyorlarini o'rganish. Ovqatni tarqatish varaqasini - menyu raskladkani tuzish. Davolash profilaktika muassasalaridagi oshxona hujjatlarni to'g'ri yuritish. Shifoxonada qo'llaniladigan barcha parhez turlari, yilning qishgi va yozgi davrlariga 7 kunlik ishchi taomnoma tuzish. Bemorlar uchun ovqat ratsioni va taomlar kartotekasini tuzish. Parhez taom tayyorlash texnologiyasi. Nonushta, tushlik, kechki ovqat uchun tuzilgan taomnomaning mahsulotlarini tarkibidagi oqsil, yog', uglevodlar va to'yimlilik qiymatini hisoblash. Ovqatni tarqatish varaqasini to'ldirish. Taom tayyorlashda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, xodimlarni har olti oyda tibbiy ko'rikdan o'tkazish. Xodimlarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tilishini nazorat qilish. Parhez va shifobaxsh taomlarni tayyorlash texnologiyasi. Tayyor taomlarni tarqatish va porsiyalash. Tayyor taomlardan sinama olish. Oziq-ovqat mahsulotlarini gigiyenik jihatdan baholash. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash qoidasiga amal qilish. Tayyor taomlarni bo'limlarga berilishini nazorat qilish. Tayyor taomlarni tarqatish va porsiyalash.

**2.5.Modul. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga qo'yiladigan talablar. Oziq-ovqat mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy va ularning gigiyenik tavsifi.** DPMlarda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga qo'yiladigan talablar, oziq-ovqat mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy, energetik qiymati va ularning gigiyenik tavsifi. Respublika davolash profilaktika muassasalarida oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va tarqatish chora-tadbirlarini, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan sertifikatlarini mavjudligini nazorat qilish. Mahsulotlarni qabul qilish va to'g'ri saqlashga qo'yiladigan talablarni o'rganish. Oziq-ovqat mahsulotlarini organoleptik xususiyatlarini (rangi, hidi, konsistensiyasi) o'rganish.

Don mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, nordon sut mahsulotlari, tuxum va tuxumli mahsulotlar, go'sht va go'sht mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy, energetik qiymati va ularning gigiyenik tavsifi. DPM ga kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlash. Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilib olish tartibi. Oziq-ovqat mahsulotlari saqlash shartlarini, xom va tayyor mahsulotlarni alohida saqlashni, go'sht va sut mahsulotlarini saqlash tartibini, ildizmevali sabzavotlarni, mevalar, ko'katlarni saqlash tartibini, tez buziladigan mahsulotlarni saqlash sharoiti va muddatlarini. Don mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, nordon sut mahsulotlari, tuxum va tuxumli mahsulotlar, go'sht va go'sht mahsulotlarining taomiy, ozuqaviy, energetik qiymati va ularning gigiyenik tavsifini. DPMLar oshxonalarida tayyorlanayotgan ovqatlarning tayyorlanish tartibini, uning ozuqaviy qiymatini, uning turli xilligini, kaloriyaligini, ximiyaviy tarkibini, odam organizmiga mahalliy va umumiy ta'sirini.

### **2.6.Modul. Shifobaxsh ichimliklar va ularni turli kasalliklarda tavsiya etish.**

Bemorlarni dorivor o'simliklar va ulardan tayyorlangan shifobaxsh ichimliklar bilan davolash (fitoterapiya). Shifobaxsh ichimliklar va ularni turli kasalliklarda tavsiya etish, shifobaxsh sharbatlar, shifobaxsh giyohlardan dori-darmonlar tayyorlash hamda foydalanish. Shifobaxsh giyohlar hamda ularning ishlatilishi, shifobaxsh giyohlarning salbiy ko'rsatkichlari, odam organizmida mahalliy va umumiy ta'siri. Dorivor o'simliklarni yig'ishda amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalar. Shifobaxsh sharbatlar, shifobaxsh giyohlardan dori-darmonlar tayyorlash hamda foydalanish yo'llari, tayyorlanish usullari, saqlash tartiblari. Shifobaxsh ichimliklar va ularni tayyorlash usullarini, shifobaxsh giyohlardan dori darmonlar tayyorlash hamda foydalanish yo'llari, dorivor o'simliklarni yig'ishda qo'yiladigan talablar.

### **2.7 Modul. Turli kasalliklarni davolashda parhez ovqatlanishni tashkil etish.**

**Turli aholi guruhlarining ovqatlanishi.** Turli kasalliklarni davolashda parhez ovqatlanishni tashkil etish. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida tavsiya etiluvchi oziq-ovqatlar. Buyrak kasalliklarida tavsiya etiluvchi oziq-ovqatlar. Qandli diabetda tavsiya eiladigan va tarkibida umumiy kaloriya miqdori yengil hazm bo'ladigan uglevodlar va hayvon yog'lari hisobiga kamaytirilgan oziq-ovqat mahsulotlari. Yurak qon-tomir kasalliklarini profilaktikasi sifatida tavsiya etiluvchi oziq-ovqatlar. Yurak qon-tomir kasalliklari bilan og'riqan bemorga ratsionidagi iste'mol qilinishi chegaralangan mahsulotlar turlari. Sil kasalliklarini davolashda tavsiya etiladigan oziq-ovqatlar. Yuqumli kasalliklar va operatsiyadan keyingi holatda tavsiya etiladigan oziq-ovqatlar. Maxsus davo diyetasini tayinlashga ko'rsatmalar bo'lmagan va hazm a'zolari normal bo'lgan turli kasalliklarda tavsiya etiladigan oziq-ovqatlar. Har bir parhez stolida tayinlashga ko'rsatmalar, tayinlashdan maqsad, umumiy ta'rifi, kimyoviy tarkibi va uning kaloriyaliligi, ovqatlanish rejimi, ruxsat etiladigan va man qilingan mahsulotlar va taomlar ro'yxatining aks ettirilishi.

**2.8 Modul. Bolalar va o'smirlar diyetologiyasi xususiyatlari.** Ratsional ovqatlanish. Nutritsiologiya. Bolalar organizmining normal o'sish va rivojlanishda ratsional ovqatlanishning ahamiyati. Ratsional ovqatlanishning tibbiy asoslari. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy, biologik va energetik qiymati, aniqlash usullari. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi

bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqa moddalariga bo'lgan meyorlari. Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishda ularning sifatlilik belgilari. Kunlik, haftalik taomnoma tuzish. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish va saqlashga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati va saqlash muddatlariga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar. Shifobaxsh ichimliklar va ularni tavsiya etish. Shifobaxsh sharbatlar tayyorlash.

**2.9 Modul. Onkologik kasalliklar xavfini kuchaytiruvchi nutriyentlar. Kanserojenlar. Saraton kasalligini rivojlanishiga qarshilikni oshiruvchi oziq-ovqatlar.** Onkologik kasalliklarni rivojlanishida noto'g'ri ovqatlanish asoratlari. Saraton kasalligini rivojlanishiga sabab bo'luvchi kanserojen oziq-ovqatlar. Yuqori kaloriyali ovqatlar, hayvon yog'lari, yuqori miqdordagi xolesterin va shakar saqlagan mahsulotlar. Onkologik kasalliklarni zo'raytiruvchi oziq-ovqat turlari. Onkologik kasalliklarni hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan turlari. Onkologik kasalliklarni profilaktikasida oziq-ovqatni o'rni. Onkologik kasalliklarida iste'mol qilinayotgan suyuqliklarni ijobiy hususiyatlari. O'sma kasalliklari bilan og'rigan bemor taomnomasida kundalik tavsiya etiluvchi meva turlari.

#### **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

**4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

**4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020yil 12noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora –tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020yil 12noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni. 2017 yil 3yanvar.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholini sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarori PQ-4887-sonli Qarori

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni.

7.Sog‘liqni saqlash vazirining 2020 yil 27 noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyati hamda aholiga ko‘rsatilayotgan nutritsiolog, diyetolog xizmatini tubdan yaxshilash to‘g‘risida”gi № 309-sonli buyrug‘i.

#### **4.3.2.Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Strategiya v oblasti fizicheskoy aktivnosti dlya Yevropeyskogo rayona VOZ, 2016-2025gg. VOZ, 2016.
2. Plan deystviy v oblasti pishevix produktov i pitaniya na 2015-2020gg. VOZ, 2015.
3. Yevropeyskiy plan deystviy po sokrasheniyu vrednogo upotrebleniya alkogolya, 2012-2020gg. VOZ, 2013.
4. Alimova R.R. “To‘g‘ri ovqatlanish”. “Ovqatlanish sirlari” Tibbiyotnomaning maxsus soni. 28.03.2005 y.
5. Baxritdinov SH.S, Xudoyberganov A.S. “Nutritsiologiya”, 2000, 260 b. Ibn Sino.
6. Ibragimov SH.B., Baxromov S.S. «Buyuk tabib» J. Ibn Sino 2000g.№1
7. A.G.Gadayev, G.I.Shayxova “Sog‘lom ovqatlanish salomatlik mezonlari.” 2015y.
8. A.G.Gadayev, L.X.Musadjanova, N.Pirmatova “Shifobaxsh taomlar” 2017y.
9. A.A.Abdugodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent “O‘qituvchi ta‘minoti”, Toshkent Mehnat -2000 yil.
10. A.Sattorov “Informatika va axborot texnologiyalari” Toshkent, O‘qituvchi-2003
11. T.Xolmatov, N. Taylaqov “Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy ta‘minoti.
12. Sheraliyev F.A. “Informatika va axborot texnologiyalari” Termiz.
13. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 y.
14. “Mejdunarodniye mediko-sanitarniye pravila (2005) vtoroye izdaniye VOZ
15. “Ebola isitmasi”. H.B.Saparov. B.O‘.Rovshanov. Toshkent -2014 y.
16. “Infektsionniye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii” A.K. Belousova. V.N.Dunayseva. Feniks – 2007 y.
17. “VICH – infektsiya”. Pod redaksiyey AN RUzDaminova.T.A.Tashkent-2010 g.
18. COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.
19. Yunusjonova. Z.S.Mirzayeva S.A. “Psixologik parvarish” Toshkent.2014y.
20. Shukurov. H.I.Qanoatov. S.Q. “Jamoada hamshiralik ishi” Toshkent. 2013y.
21. Zokirova. K.O‘.To‘xtamatova. D.O‘. Mirzayeva. S.A “Hamshiralik ishi asoslari”. 2013 y.
22. N.Bonk “Prakticheskaya grammatika angliyskogo yazika”.

23. E.A.Volkova, I.I.Tsert “English matter”, Mac Millan , Murphy.
24. T.Y. Umarova ” Hamshiralik ishi” Toshkent-2005y
25. V.YE.Avakov O.V.Churilova A.M.Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
26. Y.Allayorov Y.Tojiboyev “Favkulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari”.

#### **4.3.2. Elektron ta’lim resurslari**

[www.pubmed.com](http://www.pubmed.com)

[www.medscape.com](http://www.medscape.com)

[www.doktor.ru](http://www.doktor.ru)

[www.medinfo.home.ml.org](http://www.medinfo.home.ml.org)

[www.rusmedserv.com](http://www.rusmedserv.com)

[www.eurasiahealth.org](http://www.eurasiahealth.org)

[www.alhealth.com](http://www.alhealth.com)

[www.docguide.com](http://www.docguide.com)

[www.healthweb.com](http://www.healthweb.com)

## **5. YAKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar.**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.